

**A.A. BOQIYEV
N.A. NURALIYEVA**

O'simliklarga vegetatsiya davrida ishlov beruvchi elektromexanik qurilma

/ Suspensiya sepih misolida / . / Monografiya /



OVX - 600 parqalgich



Lokat parqalgich



Tirilama parqash



OBXK - 11 shog'ali parqalgich



**A.A. Boqiyev
N.A. Nuraliyeva**

O'simliklarga vegetatsiya davrida ishlov beruvchi elektromexanik qurilma

/ Suspensiya sepih misolida / .

/ Monografiya /

**TOSHKENT
2023**

Monografiya "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti Ilmiy Kengushining 2023 yil "25» mai. № 10 - sonli majlis bayoniga asosan chop etishga tavsiya etilgan.

UDK: 621.331

ISBN 978-9943-9665-9-8

Chop etishga taqdim etilayotgan monografiya Respublikada qo'llanilayotgan organik yonilg'ida ishlaydigan texnika vositalarining energiyasamaradorlik ko'rsatkichlarini past darajada ekanligi xamda yonilg'i-moylash materiallari uchun xarajatlar yuqoriligini e'tiborga olgan holda O'zbekiston sharoitida qishloq xo'jalik traktorlarini elektr yuritimiga o'tkazish o'simliklarga ishlov beruvchi mobil elektromexanik qurilmalarni yaratish va joriy etish bo'yicha nazariy va amaliy yechimlariga qaratilgan.

Mobil elektromexanik qurilmani joriy etilishi agrotexnik tadbirlarni kam xarajatlar hisobiga o'tkazish imkonini yaratadi. Bu o'z navbatida mavjud texnika va xom ash yo' resurslaridan samarali foydalanish imkonini beradi.

Monografiyadan qishloq xo'jalik traktorlarini elektr yuritimga o'tkazish o'simliklarga ishlov beruvchi mobil elektromexanik qurilmalarni yaratish bilan shug'ullanuvchi ilmiy xodimlar, doktrantlar, magistrlar va oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilari, uchun mo'ljallangan bo'lib, bundan tashqari 60810500. "Qishloq va suv xo'jaligida energiya ta'minoti", 60710600. "Elektr energetikasi" (tarmoqlar va yo'naltirish bo'yicha), 60711000. Muqobil energiya manbalari (turlari bo'yicha), 60711400. Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashurish va boshqarish (qishloq xo'jaligida), 70810501. "Qishloq va suv xo'jaligida energiya ta'minoti" magistratura mutaxassisligi magistrantlari foydalanishlari mumkin.

Taqrizchilar: (PhD) dotsent. **M. Jiyanov,**
t.f.n. professor **R.T. Gaziyeva**

A.A. Boqiyev N.A. Nuraliyeva

O'simliklarga vegetatsiya davrida ishlov beruvchi elektromexanik qurilma
(suspensiya sepish misolida)

Monografiya. -T.: "TIQXMMI" MTU, 2023. 105 bet.

KIRISH

Jahonda hozirda qishloq xo'jaligiga elektr traktorlar va hosilqa resurstejamkor elektrotexnologik jihozlarni jadal joriy etish yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda. "Dunyo miqyosida qishloq xo'jalik texnikalari ishlab chiqaruvchi tanqil kompaniyalarni traktorlarni elektr yuritimga o'tkazish bo'yicha tadqiqotlarini hisobga olsak", energiyasamaradorlik nuqtai nazaridan ushbu tadqiqotlar natijasida yaratilgan elektr yuritimli traktorlarni amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Hozirgi kunda qishloq xo'jaligida foydalanilayotgan mobil texnika vositalarining ko'pchiligi organik yonilg'ida ishlaydi, natijada amalga oshirilayotgan agrotexnik tadbirlarning energiya samaradorligi past bo'lmoqda. Shu jihatdan yonilg'i-moylash materiallarini ishlab chiqarish, saqlash va yetkazib berish sarf-xarajatlari yuqoriligidan kelib chiqib, qishloq xo'jaligida elektr yuritimli traktorlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi [75, 76].

Jahonda qayta tiklanadigan energiya manbalari (quyosh, shamol, gidravlik, issiqlik va boshqalar) asosidagi elektr stansiyalarining keng miqyosda joriy etgan holda, elektr traktorlar yaratishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, dunyo aholisi uchun oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishning yangi texnologiyalari yaratilayotganligiga qaramay, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi yana uzoq vaqt davomida oziq-ovqat yetishtirishning asosiy bazasi bo'lib qolishi va bu maqsadlar uchun ko'p miqdorda qishloq xo'jalik texnika vositalari talab etilishini nazarda tutgan holda, yuqori darajadagi ekologik talablarga javob beradigan, agrotexnik tadbirlarni atrof-muhitga zarar yetkazmay, yuqori iqtisodiy samaradorlik bilan amalga oshiradigan energiyatejamkor mobil texnika vositalarini ishlab chiqish hamda ularning parametrlari va ish rejimlarini asoslashga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda qishloq xo'jalik maxsulotlarini yetishtirishda mehnat hamda energiya resurslaridan samarali foydalanish, yetishtirilgan maxsulotlarni yig'ishtirish va qayta ishlashda xom ash yo' va energiya resurslarini kamaytirish imkonini beradigan resurstejamkor texnika va texnologiyalarni ishlab chiqish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2017-2021 yillarda